



BOG'LANGAN QO'SHMA GAPLARNI MAKTAB TA'LIMIDA SAMARALI O'QITISH

Ozodova Zarinaxon Ravshan qizi

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti, ona tili va adabiyotita limi fakulteti 3-bosqich talabasi
E-mail: zarinaxonozodova06@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada bog'langan qo'shma gaplarni o'qitishga oid metodik tavsiyalar berilgan. "Bog'langan qo'shma gaplarni maktab ta'limida samarali o'qitish" doirasida 9-sinf o'quvchilariga topshiriqlar ishlab chiqilgan. Maqola umumta'lim maktab o'qituvchilariga va OTM talabalariga o'qish uchun tavsiya etiladi.

Kalit so'zlar: Qo'shma gaplar, bog'langan qo'shma gaplar, sintaktik bog'lanish, teng bog'lovchilar.

Qo'shma gaplar, tuzilishiga ko'ra sodda gapga o'xshash ikki va undan ortiq predikativ birlikning intonatsiya va mazmun jihatidan bir butunlik hosil etishi bilan yuzaga keluvchi gap; gapning struktural jihatdan alohida bir turi. Qo'shma gap tuzilishi va qurilish materialiga ko'ra sodda gapdan farq qiladi. Sodda gapning qurilish materiali so'z yoki so'z birikmalari bo'lsa. Qo'shma gapning qurilish materiali sodda gaplardir. Sodda gap bitta predikativ asosdan, qo'shma gap esa ikki va undan ortiq predikativ asosdan tashkil topadi. Bir qancha turkiy tillarda, jumladan. o'zbek tilida, qo'shma gaplar qanday mazmun munosabatlarini ifodalashi, grammatik belgilari, tuzilishi va intonatsiyasiga ko'ra 3 asosiy turga bo'linadi: bog'lovchisiz qo'shma gap; bog'langan qo'shma gap; ergashgan qo'shma gap.

Bog'langan qo'shma gaplar o'zaro teng munosabatdagi sodda gaplardan iborat bo'lib, ular teng bog'lovchilar yoki tenglanish ohangi yordamida bog'lanadi.

Chizmasi: -----, ----- va -----; -----, ammo -----.³⁷

Bog'langan qo'shma gaplar: Qismlari teng bog'lovchilar, bo'lsa, esa so'zlar, -u (-yu), -da yuklamalari yordamida bog'langan gaplar bog'langan qo'shma gaplar hisoblanadi.

Qo'shma gap sintaksisini o'rganish o'quvchilarning nutqiy taraqqiyotiga ijobiy ta'sir ko'rsatish bilan bir qatorda, fikrni nutq sharoitiga mos ravishda og'zaki va yozma shakllarda to'g'ri, ravon ifodalash ko'nikmalarini, madaniy nutq malakalarini shakllantiradi va rivojlantiradi. Darsliklarimizda qo'shma gaplar talqini anchayin murakkab. U ikki va undan ortiq sodda gapning mazmun, grammatik shakl va ohang asosida birikuvidan tuziladi. Uning tarkibidagi sodda gaplar bir-biri bilan bog'lovchilar,

³⁷ Hozirgi o'zbek adabiy tili X. Muhiddinova, D. Xudayberganova va boshqalar Toshkent-2006.



MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

yuklamalar, ko'makchilar, nisbiy so'zlar fe'l shakllari va ohang orqali bog'lanadi. Ona tili o'qitish metodikasida qo'shma gaplarni o'rganish yuzasidan an'anaviy darslikdagi mashqlar, savol va topshiriqlar 1950-yillarda shakllantirilgan va hozirgi kunga qadar amalda qo'llanilayotgan dastur va darsliklar talablari doirasida qolib ketgan edi.³⁸

Biriktiruv bog'lovchisi bog'langan qo'shma gapning payt, sabab-natija munosabatlarida bo'lgan qismlarini bog'lab keladi. Qismlari o'rtasida sabab-natija munosabati ifodalangan qo'shma gaplarda ikkinchi qism oldidan natija so'zini qo'yish mumkin bo'ladi. Masalan: Anor so'zlar va Zaynab qalbi Tol bargiday dir-dir qaltirar. (Hamid Olimjon) // Anor so'zlar, (va) natijada Zaynab qalbi Tol bargiday dir-dir qaltirar. Ba'zan -u, (-yu), -da yuklamalari ham biriktiruv bog'lovchilari bajargan vazifani bajaradi.

Zidlov bog'lovchilari bog'langan qo'shma gap qismlarini bog'lash bilan birga, ular o'rtasida zidlik munosabatini ham ifodalaydi. Zidlov bog'lovchilari qo'shma gapning ikkinchi qismi boshida qo'llanadi va qo'shma gap qismlari vergul bilan ajratiladi. -u(-yu), -da yuklamalari bog'langan qo'shma gap qismlarini bog'lash bilan birga ular o'rtasida zidlash, ketma-ketlik munosabati mavjudligini bildiradi.

Ayiruv bog'lovchilari qo'shma gap qismlarini bog'lash bilan birga, ularda ifodalangan voqeа-hodisalarни galma-gal ro'y berishini yoki ulardan faqat bittasining yuzaga chiqishini ta'kidlaydi. Yo (yoki) bog'lovchisi yolg'iz holda ham, takror holda ham qo'llanishi mumkin. Qolgan ayiruv bog'lovchilari takror holda qo'llanadi va yozuvda takror qo'llanayotgan bog'lovchidan oldin vergul qo'yiladi.

Inkor bog'lovchisi bog'langan qo'shma gap qismlarini bog'lash bilan birga, ular ifodalagan harakat-holat yoki belgining inkorini ham bildiradi. Shuning uchun bunday bog'langan qo'shma gaplarda kesimlar bo'lishli shakildagi fe'llar yoki bor, mavjud kabi so'zlar orqali ifodalansa-da, mazmun inkor tarzida anglashiladi. Yozuvda takror qo'llanayotgan bog'lovchidan oldin vergul qo'yiladi.

Qo'shma gaplar teng bog'lovchilarning turiga ko'ra mazmunan farqlanib keladi. Biriktiruv bog'lovchili bog'langan qo'shma gaplar bir vaqtning o'zida yoki ketma-ket ro'y bergen voqeа-hodisalarni ifodalasa, zidlov bog'lovchili bog'langan qo'shma gaplarda bir-biriga zid voqeа-hodisalar ifodalanadi. Masalan: Osmonga bulut chiqdi va yomg'ir yog'a boshladi. Osmonga bulut chiqdi, ammo yomg'ir yog'madi. Ba'zan bu bog'lovchilar o'rnida -u(-yu), -da yuklamalari ham qo'llanishi mumkin. Tarkibidagi bog'lovchilarga ko'ra ushbu gaplar turli qo'shimcha ma'nolarga ham ega bo'ladi. Qiyoslang: Osmonga bulut chiqdi-yu, yomg'ir yog'a boshladi. Osmonga bulut chiqdi-yu, ammo yomg'ir yog'madi. Ayiruv bog'lovchili bog'langan qo'shma gaplar goh..., goh..., ba'zan..., ba'zan..., dam..., dam... kabi ayiruv bog'lovchilari bilan bog'lansa, voqeа-hodisalarning galma-gal bo'lishini, yo..., yo..., yoki, yoxud

³⁸ B. To'xliyev, M. Shamsiyeva, T. Ziyodova "O'zbek tili o'qitish metodikasi" O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti. Toshkent 2006.

MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

bog‘lovchilari bilan bog‘lansa, ushbu voqealarning biri bo‘lishini ifodalaydi. Masalan: *Goh olislardan qizlarning sho‘x yallalari eshitilar, goh bulbularning yoqimli sayrashi quloqqa chalinadi. Yo siz keling, yo men boray.* Inkor bog‘lovchili bog‘langan qo‘shma gaplar esa inkor ma’nosini bildiradi: *Uning na bir hamdard kishisi bor, na bir ovuntiradigan mashg’uloti.*

Es1atma:Bunday gaplarda keyingi gapda kesim tushib qolishi ham mumkin. Bog‘langan qo‘shma gaplar tenglanish ohangi bilan aytildi, shuning uchun ular orasiga vergul qo‘yiladi. Faqat biriktiruv bog‘lovchili qo‘shma gaplargina bundan mustasno.

O‘quvchilarga bog‘langan qo‘shma gaplarni maktab ta’limida samarali o‘tish uchun quyidagi usullardan foydalanish samarali bo‘ladi. O‘quvchilarga quyidagi gaplar tarqatiladi (yoki ekranga chiqariladi): Men vaqtida uyg‘ondim, _____ darsga kechikmadim.

Quyosh porlab turardi, _____ qushlar chug‘urlardi.

U dars tayyorladi, _____ darsda savollarga javob bera oldi.

Men uni chaqirdim, _____ u eshitmadi.

Keyingi topshiriqda esa har bir guruh yoki o‘quvchi to‘g‘ri bog‘lovchini tanlaydi va izoh beradi. Masalan: Bu yerda sabab-oqibat munosabati bor, shuning uchun “chunki” bo‘lishi kerak.

Bu yerda ikki harakat qo‘shilyapti, shuning uchun “va” to‘g‘ri keladi.

Bog‘langan qo‘shma gaplarni quyidagi tartibda sintaktik tahlil qilinadi:

1. Qo‘shma gap tarkibidagi sodda gaplar va ularning mazmun jihatidan bog‘lanishi.
2. Sodda gaplarning bog‘lanish yo‘li, bog‘lovchilarning turi.
3. Sodda gaplar orasida qo‘llangan tinish belgilari.
4. Gap bo‘laklari.

Masalan: Urushdan boylar manfaat topdi, ammo kambag‘allar xonavayron bo‘ldi.

1) ikki sodda gap (qism)bor: urushdan boylar manfaat topdi, kambag‘allar xonavayron bo‘ldi: qiyoslang: zidlash mazmun munosabati bor; 2)sodda gap qismlari o‘zaro vergul bilan ajratilgan; 3)gap bo‘laklarini aniqlash.³⁹

O‘quvchilarda bog‘langan qo‘shma gaplarni aniqlash, ularni turiga ajratish va sintaktik jihatdan tahlil qilish ko‘nikmasini shakllantirishga oid topshiriqlar.

1-topshiriq: Gaplarni ajrating va turlarini aniqlang

Topshiriq: Quyidagi gaplarni o‘qing, bog‘langan qo‘shma gaplarni ajrating va ularni bog‘lovchisiga ko‘ra turini, teng bog‘langanmi yoki ergash bog‘langanligini aniqlang.

1. Quyosh chiqqan edi, lekin havo yana sovuq edi.
2. Qushlar chug‘urlay boshladи va daraxtlar tebranib turardi.
3. U darsini tugatdi, chunki u avvaldan tayyor edi.
4. Men kitob o‘qidim, do‘stim esa dars qilardi.
5. Agar ertaroq kelganingda, biz kutib olgan bo‘lardik.

2-topshiriq: Sintaktik tahlil qiling

³⁹ A. G‘ulomov, M. Qodirov va boshqalar “Ona tili o‘qitish metodikasi” Toshkent-2012

MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

Topshiriq: Quyidagi bog‘langan qo‘shma gaplarni bo‘laklariga ajratib, sintaktik tahlil qiling. Har bir gapda asosiy va ergash gapni aniqlang.

1. Havo ochiq edi, shuning uchun biz sayrga chiqdik.
2. U harakat qilsa, albatta muvaffaqiyat qozonadi.
3. Bola kuldi, ammo uning ko‘zlarida yosh bor edi.
4. Men uni chaqirdim, biroq u javob bermadi.
5. U qattiq mehnat qildi, natijada imtihonlardan muvaffaqiyatli o‘tdi.

3-topshiriq: O‘zingiz bog‘langan qo‘shma gap tuzing

Topshiriq: Berilgan bog‘lovchilardan foydalanib, har biri bilan bir bog‘langan qo‘shma gap tuzing va ularni sintaktik tahlil qiling:

va
ammo
chunki
agar
biroq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 9-sinfi uchun darslik. N.M. Mahmudov, A. Nurmonov, A.Sh. Sobirov. Toshkent 2014.
2. A. G‘ulomov, M. Qodirov, M. Ernazarova, A. Bobomurodova va boshqalar “Ona tili o‘qitish metodikasi” Toshkent 2012. 295-296 betlar.
3. X. Muhiddinova, D. Xudayberganova, I. Umarov, N. Jiyanova, T. Yusupova “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” O‘qituvchi nashriyot matbaa ijodiy uyi. Toshkent 2006. 170-bet.
4. B. To‘xliyev, M. Shamsiyeva, T. Ziyodova “O‘zbek tili o‘qitish metodikasi” O‘zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti. Toshkent 2006. 166-169-betlar.